

**SURXONDARYO VILOYATINING AYRIM IJTIMOYIY-IQTISODIY
KO'RSTAKICHLARI VA UNDA AYOLLAR ISHTIROKI TARIXIY JARAYONLAR
KONTEKSTIDA**

Djurayev Baxtiyor Rajaboyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
Email: baxtiyorjurayev1977@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada Surxondaryo viloyatining ayrim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rstakichlari va unda ayollar ishtiroki tarixiy jarayonlar kontekstida tahlil etilgan. Unda ayollarning viloyat taraqqiyotida, ayniqsa, mahalliy iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, hunarmandchilik va ijtimoiy sohalardagi o'rni bayon qilingan. Maqolada gender tenglikni ta'minlash, ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va ayrim muammolar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Ayollar, Surxondaryo viloyati, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, tadbirkorlik, ish, mehnat, huquq, erkinlik, hunarmandchilik, gender tenglik, yoshlar, bandlike.

Introduction

**НЕКОТОРЫЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В КОНТЕКСТЕ
ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ**

Аннотация:

В статье анализируются некоторые социально-экономические показатели Сурхандарьинской области и участие женщин в контексте исторических процессов. Описывается роль женщин в развитии региона, особенно в национальной экономике, образовании, здравоохранении, ремесленничестве и социальной сфере. В статье рассматриваются приоритеты и некоторые проблемы государственной политики в области обеспечения гендерного равенства и защиты прав и интересов женщин.

Ключевые слова: женщины, Сурхандарьинская область, социально-экономические секторы, предпринимательство, работа, труд, права, свобода, ремесла, гендерное равенство, молодёжь, занятость

**SOME SOCIO-ECONOMIC INDICATORS OF THE SURKHANDARYA REGION
AND WOMEN'S PARTICIPATION IN THE CONTEXT OF HISTORICAL
PROCESSES**

Abstract:

The article analyzes some socio-economic indicators of the Surkhandarya region and women's participation in the context of historical processes. It describes the role of women in the development of the region, especially in the national economy, education, health care, handicrafts and the social sphere. The article examines the priorities and some problems of state policy in the field of ensuring gender equality and protecting the rights and interests of women.

Keywords: Women, Surkhandarya region, socio-economic sectors, entrepreneurship, work, labor, rights, freedom, crafts, gender equality, youth, employment

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy islohotlar davrida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ayollarning faol ishtiroki masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan demokratik islohotlar, gender tenglikni ta'minlash siyosati va inson huquqlarini kafolatlash borasidagi chora-tadbirlar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Shu jarayonlarda xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarda faol qatnashuvi nafaqat milliy taraqqiyot darajasini belgilovchi mezon, balki xalqaro miqyosda ham ijobiy baholanayotgan ko'rsatkichlardan biridir.

Xususan, Surxondaryo viloyati misolida ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni tarixiy jarayonlar kontekstida o'rganilishi mintaqaviy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi. Chunki ushbu hudud o'zining geografik joylashuvi, demografik tarkibi va madaniy an'analari bilan ajralib turadi. Viloyatda olib borilayotgan davlat siyosati natijasida xotin-qizlarning tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, hunarmandchilik va jamoatchilik faoliyatiga keng jalb etilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Ilmiy adabiyotlarda gender masalasi va ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rniga oid tadqiqotlar milliy va xalqaro darajada keng muhokama qilinayotgan bo'lib, ularning natijalari O'zbekistondagi islohotlar jarayonini xalqaro tajriba bilan qiyosiy o'rganishga xizmat qiladi. Shu bois Surxondaryo viloyatida ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini tarixiy va zamonaviy nuqtayi nazardan tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

MAQSAD VA UNI ASOSLASH

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayollarning tutgan o'rni va ishtirokini tarixiy jarayonlar kontekstida tahlil qilish, shuningdek, gender tenglikni ta'minlash va ayollar huquqlarini himoya qilish borasida olib borilayotgan davlat siyosatining samaradorligini ko'rsatishdan iboratdir.

Mavzu dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda ayollarning jamiyatdagi o'rni masalasi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. BMT, UNESCO, XMT kabi xalqaro

tashkilotlarning hisobotlari gender tenglik masalasi har bir davlatning rivojlanish strategiyasida asosiy mezonlardan biri ekanligini ta'kidlab kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Surxondaryo viloyati misolida olib borilayotgan siyosat va uning natijalarini tahlil qilish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muammo ilmiy adabiyotlarda turli qirralarda o'rganilgan bo'lsa-da, ko'proq umumiy yondashuvlarda, jumladan, ayollarning huquqlari, mehnat bozori, bandlik va ta'lim sohalaridagi faoliyati alohida ko'rib chiqilgan. Biroq Surxondaryo viloyati singari alohida mintaqada misolida, tarixiy jarayonlar bilan uyg'un holda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tadqiq etish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Shunday ekan, ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni ayollar faoliyatining hududiy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlarini chuqur tahlil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maqolada tanlangan muammoning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat gender tenglikni ta'minlash yoki ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini yoritadi, balki Surxondaryo viloyatining o'ziga xos iqtisodiy va madaniy xususiyatlari fonida bu jarayonlarni ko'rsatib beradi. Bu esa mavzuni boshqa umumiy tadqiqotlardan ajratib turadi va uning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

ILMIY MUAMMONING TAVSIFI VA YECHIMI

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda o'ziga xos geografik, madaniy va demografik xususiyatlarga ega. Bu hududda yashovchi ayollar mamlakat taraqqiyotida, ayniqsa, mahalliy iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, hunarmandchilik va ijtimoiy faollik sohalarida muhim rol o'ynamoqda. Keyingi yillarda O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash, ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Surxondaryo viloyatida ham bu islohotlar o'z samarasini bermoqda. Jumladan, viloyatdagi 2 million 945 mingdan ortiq aholining yarmidan ko'pi ayollardir va ularning faol ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qo'shilishi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Viloyatdagi ayollar orasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, Surxondaryoda 7 mingdan ortiq xotin-qizlar kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan. Ular orasida asosan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tikuvchilik, xizmat ko'rsatish, agrosoha va hunarmandchilik yo'nalishlari yetakchi o'rinni egallaydi. Shuningdek, viloyatda ayollarning davlat boshqaruvi va jamoatchilik hayotidagi faolligi ham ortib bormoqda. Xotin-qizlar mahalla fuqarolar yig'inlari, xalq deputatlari mahalliy kengashlari va turli nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida faol qatnashmoqdalar. Ular o'z tashabbuslari bilan yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda muhim rol o'ynab kelmoqdalar.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ham ayollar muhim kuch sanaladi. Viloyatdagi umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari hamda tibbiyot muassasalarida ishlovchi pedagog va tibbiy xodimlarning aksariyat qismini ayollar tashkil etadi. Bu holat nafaqat ayollarning mehnat bozoridagi o'rnini ko'rsatadi, balki ularning jamiyat taraqqiyotidagi hissasini ham yaqqol namoyon etadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, demokratik islohotlar, va madaniy hamda ma’naviy o‘zgarishlar davrida davlat va jamiyat hayotida xotin-qizlarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar darajasini qay darajada ekanligini va unda ayollar ishtirokini belgilab olishda muhim o‘ringa ega. Mazkur omillar Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va demokratik islohotlar, madaniy va ma’naviy o‘zgarishlarni tarixiy jarayonlar bilan mushtarak holda tadqiq etish va uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa xotin-qizlar va ularga oid masalalarning huquqiy asoslari O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida aks etishi va unda gender tenglik masalasining kafolatlanishi ushbu mavzuni ilmiy tadqiq etish naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishini anglatmoqda¹. Shu boisdan bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotida xotin-qizlar masalasini alohida olingan viloyatlar, xususan Surxondaryo viloyati misolida tarixiy aspektda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda ayollar bandligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonlarini yo'lga solish uchun maktabgacha ta'lim muassaslari, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassaslarining o'rni katta. Xususan, viloyat markazidan uzoq bo'lgan Boysun tumanida Vazirlar Mahkamasining "2019 — 2022 yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "Obi", "Ketmonchi", "Mehriobod", "Kosiblar", "Pasurxi", "Temir darvoza", "Ko'iqamish", "Hunarmandlar", "Inkaobod", "Sho'rsoy" mahallalarida Davlat-xususiy sherikchiligi asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etish mo'ljallangan². Bu ham mahallalarda bog'cha yoshidagi bolalar qamrovini oshishiga olib keldi va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Viloyatda aholining ijtimoiy-siyosiy faolligiga e'tibor qaratisa, 1991-2020 yillarda turli Davlat mukofotlari va ko'krak nishonlariga sazovor bo'lgan xotin-qizlar, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Faxriy unvonlari 62 ta, O'zbekiston Respublikasining ordenlari 110 ta, O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i 22 ta, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari 28 ta, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sovrindorlari 35 ta, "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni sovrindorlari 8 tani tashkil etganligi e'tiborga molikdir. Viloyatda 2010 yilda ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan jami 23 nafar (xususan Angor tumanida 4 nafar, Denov tumanida 6 nafar, Qiziriq tumanida 1 nafar, Sariosiyo tumanida 1 nafar, Uzun tumanida 2 nafar, Sherobod tumanida 2 nafar hamda Termiz shahrida 7 nafar) xotin-qizlarni sog'lom xayotga qaytarish bo'yicha ishlar olib borilgan³.

Masalan, Surxondaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganish jarayonida, YaHMning o'sish sur'ati 2010- 2022 yillarda o'rtacha 6,7 foizga teng bo'lgan⁴. Shuningdek, viloyatning soha hamda tarmoqlarini iqtisodiy-statistik tahlili amalga oshirilganda, qishloq xo'jaligi tarmog'i 2010-2022 yillarda o'rtacha 4,8 foizga o'sganligi aniqlandi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi tarmog'i kabi qolgan sohalar ham umumiy iqtisodiyot kabi o'zgarish tendensiyalariga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, sanoatning o'rtacha o'sish sur'ati 6,4 foiz, qurilishning ushbu ko'rsatkichi 17,6

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2023. 1-модда. –Б. 5.

² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.08.2019 й., 09/19/709/3627-сон)

³ Сурхондарё вилояти Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бошқармасининг 2019-2020 йиллар якунлари бўйича Ҳисоботи ва 2021 йилда амалга оширилиши мўлжалланган режаси маълумотларидан олинди.

⁴ Махмудов Т.Д. Инвестицияларни жалб этишнинг минтақавий хусусиятлари ва илмий-назарий асослари/ Ўзбекистон ахборот агентлиги электрон журнали. 2023 йил, октябрь, №10 (48), 49-58 бетлар.

foiz, xizmatlar sohasi esa 7,2 foizga teng. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlar ham oxirgi yillardagi tegishli soha va tarmoqlarning o'sish sur'ati qiymatlaridan yuqori holat qayd etilmoqda. Umumiy holda mintaqa iqtisodiyoti va uning tarmoqlarida ijobiy o'sish sur'atlari aniqlandi⁵.

YaHM ko'rsatkichining tarkibiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari o'rganib chiqildi. Xususan, 2010- 2022 yillardagi tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati ulushi o'rtacha 97,4 foizga tengligi, mazkur ko'rsatkichni yillar kesimida baholaganda ham o'rtacha qiymatlarga yaqin holatda ekanligi aniqlandi. Shuningdek, mahsulotlarga sof soliqlar ulushi o'rtacha 2,6 foizga teng. Qishloq xo'jaligining yalpi tarmoqlardagi ulushi esa tadqiqot davrida o'rtacha 49,4 foizga teng bo'lmoqda. Shu bilan birga, uning tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi 2010 yildagi 46,3 foizdan tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2022 yilda 47,7 foizga teng bo'lgan. Sanoat va qurilish tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushlarining o'rtacha ko'rsatkichi mos ravishda 6,6 foiz va 6,3 foizlarga teng bo'ldi⁶.

Viloyatda ayollar bandligi va turmush tarzini yaxshilash yuzasidan ham qator chora-tadbirlar belgilanib, xususan Termiz tumanidagi "Ostona hunarmand" nomli gilamchilik korxonasi, Termiz shahridagi "Turon" nomli kichik korxonasi, Boysun tumanidagi "Rabot" jamoa xo'jaligidagi gilam to'qish va kigiz tayyorlash sexi, yoki Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi "Shoyim" hunarmandchilik korxonasi kabilarni misol qilish mumkin. Sherobodagi "Dilafro'z" xususiy korxonasida junni qayta ishlash yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu korxonasi 264 tonna sifatli jun ip ishlab chiqarib, kichik to'qimachilik korxonalariga yetkazib berganlar⁷.

Olib borilgan ijobiy tashkiliy chora-tadbirlar natijasida viloyat mahallalarida xotin-qizlar huquqini himoya qilish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash borasida turli sohalarda izchil ishlar amalga oshirilib, uyda o'tirgan ayollarning ko'pchiligi mehnatga, kasanachilik ishiga jalb qilindi. Kasanachilik ish o'rinlarining sanoatlashgan milliy hunarmandchilik korxonalarida tashkil etilishi hunarmandlarning sonini oshirish bilan birga, ishlab chiqarish sifatini ham yaxshiladi. 2006 yilda Surxondaryoda kasana asosida ishlaydigan "Hunarmand" uyushmasiga a'zo 315 nafardan ortiq hunarmand ro'yxatga olingan. Qolaversa, tikuvchilik va to'quvchilik sanoatlashgan bugungi kunda qo'lda tikish va to'qish sirlarini maxsus hunar maktabi hamda to'garaklarida kichik yoshdagi qizlarga o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi. Hunarmandchilik mahsulotlarini xorijiy davlatlarga olib chiqish borasidagi imtiyoz sifatida respublikada 24 yo'nalishdagi hunarmandchilik mahsulotlari ekspertiza yig'imidan ozod etilganligi voha hunarmandlari uchun ham ayni muddaodir. Mahalliy hunarmandlar Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiv, Nepal, Pokiston va Shri Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, janubiy Koreya) davlatlarini o'z ichiga olgan

⁵ Махмудов Т. Сурхондарё вилояти иқтисодиёти ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг иқтисодий-статистик таҳлили.// Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Tўplam-24. 2023

⁶ Махмудов Т. Сурхондарё вилояти иқтисодиёти ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг иқтисодий-статистик таҳлили.// Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Tўplam-24. 2023

⁷ Давлатова С. Мустақиллик йилларида Сурхон воҳаси аҳолиси анъанавий хунармандчилигининг ривожланиш хусусиятлари. // "Бойсун-баҳори" очик фольклор фестивали. "Жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2019. – Б 83-84.

“Hunarmandchilik mahsulotlariga UNESCO sifat belgisi” dasturida ishtirok etmoqdalar. 2006 yilda Surxondaryo vohasi Boysun tumanida ishlab chiqariladigan janda matosi va oq enli gilami ham YuNeSKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi hamda shunday belgi olgan boshqa g‘oliblar qatorida Bangkok, Pekin, Nyu-York, Dehli va Almatida ofis saytlariga joylashtirildi⁸.

Yangi O‘zbekiston davrida Surxondaryo viloyati xotin-qizlari hayotida ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. 2017 yildan keyingi davrda Prezident farmonlari va dasturlari natijasida ayollarning ish bilan ta‘minlanishida yangi bosqich boshlandi. Muhimi, “Ayollar daftari”, “Har bir oila — tadbirkor” “Yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” loyihalari orqali 50 mingdan ziyod xotin-qizlar faoliyatga jalb etildi⁹. 2020–2023 yillarda umumiy ish bilan bandlikda, yillik ish bilan band ayollar soni ortib, bunda ayollar umumiy ulushi quyidagicha ko‘rinish olgan: 2020 390,000 46,2%, 2021 405,000 46,7%, 2022 427,000 47,5%, 2023 440,000 48,0%¹⁰.

Shu bilan birga qishloq joylarda ayollar bandligi tobora ortib, qishloq hududlarda ayollar asosan agrar sektorda (paxtachilik, sabzavot yetishtirish, chorvachilik) mehnat qilishi kuzatildi. Shu bilan birga, uyda tikish, pishirish, gulchilik kabi norasmiy faoliyat turlari keng tarqalganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Vaholanki, 2023 yilda qishloq hududdagi har 100 nafar ishlayotgan ayolning 38 nafari rasmiy mehnat shartnomasiga.

Ayollarning 2022 yildagi umumiy mehnat faolligining taxminan 30%i norasmiy mehnatga to‘g‘ri keldi. Bu ularni ijtimoiy kafolatlardan, nafaqa tizimidan va mehnat huquqlaridan mahrum qildi. Natijada quyidagi muammolar kelib chiqdi: Ayollarda huquqiy bilimlarning yetishmasligi; Ayollar mehant joylarida mehnat muhofazasining yo‘qligi; Ijtimoiy nafaqalardan uzoqlashuvning sodir bo‘lishi kabilar¹¹.

Umuman, Surxondaryo viloyati xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ularning jamiyatdagi rolini yanada oshirish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta‘minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonlarda ayollarning faol ishtiroki alohida e‘tiborda bo‘ldi. Ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularni iqtisodiy hayotga keng jalb qilish, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, siyosiy sohalarda faol ishtirokini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Xususan, ayollar mamlakat taraqqiyotida, ayniqsa, mahalliy iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, hunarmandchilik va ijtimoiy faollik sohalarida muhim rol o‘ynayotganligiga guvoh bo‘ldik. Shuningdek, gender tenglikni ta‘minlash, ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Surxondaryo viloyatida ham bu islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Natijada viloyatdagi 1,5 milliondan ortiq aholining yarmidan ko‘pi ayollardir va ularning faol ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qo‘shilishi sezilarli darajada ortib borayotganligini tasdiqladi.

⁸ Давлатова С. Мустақиллик йилларида Сурхон воҳаси аҳолиси анъанавий хунармандчилигининг ривожланиш хусусиятлари // “Бойсун-баҳори” очик фольклор фестивалини “жаҳон цивилизациясида бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами. Термиз. –Б 85-86.

⁹ Сурхондарё вилояти ҳокимлиги. “Аёллар дафтари” дастури ҳисоботи, 2022. – Б. 9–15.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. “Ўзбекистонда меҳнат бозори” – Т.: 2024. – Б. 51–53.

¹¹ “Ўзбекистонда хотин-қизлар ва норасмий меҳнат” // “Ижтимоий фанлар”, 2023, №2. – Б. 49–53.

YAKUNIY QISM

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayollarning faol ishtiroki nafaqat hududiy, balki milliy taraqqiyotning ham muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqolada ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni, xususan, mehnat bozori, tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va hunarmandchilik sohalaridagi faoliyatlari tarixiy jarayonlar bilan uyg'unlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv muammoning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berishga imkon yaratdi.

Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, gender tenglikni ta'minlash masalasi faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki amaliy tashabbuslar, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ta'lim va bandlik tizimlarida ayollarning ishtirokini kengaytirish orqali real natija beradi. Shu ma'noda, maqola nafaqat mavjud nazariyalarni boyitadi, balki amaliyot uchun ham muhim xulosalar beradi.

Muallifning qarashlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatida olib borilayotgan islohotlar jarayonida ayollar masalasiga oid ijtimoiy-siyosiy yondashuvlar fanlararo tadqiqotlar bilan uyg'unlashmoqda. Ushbu yondashuv, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda gender tenglik madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi. Bu jihatlar maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi va uni mavjud nazariy tadqiqotlar orasida alohida o'ringa ega qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maqola ijtimoiy fanlarning turli yo'nalishlari — sotsiologiya, tarix, demografiya va pedagogika bilan uzviy bog'lanib, ayollar faoliyatini hududiy hamda milliy rivojlanish jarayonlari kontekstida yoritadi. Bu esa tadqiqotning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatini oshirib, kelgusida yangi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023. 1-modda. –B. 5.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.08.2019 y., 09/19/709/3627-son)
3. Surxondaryo viloyati Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasining 2019-2020 yillar yakunlari bo'yicha Hisoboti va 2021 yilda amalga oshirilishi mo'ljallangan rejasi ma'lumotlaridan olindi.
4. Maxmudov T.D. Investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy xususiyatlari va ilmiy-nazariy asoslari/ O'zbekiston axborot agentligi elektron jurnali. 2023 yil, oktyabr, №10 (48), 49-58 betlar.
5. Maxmudov T. Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili.// Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. To'plam-24. 2023
6. Davlatova S. Mustaqillik yillarida Surxon vohasi aholisi an'anaviy hunarmandchiligining rivojlanish xususiyatlari. // "Boysun-bahori" ochiq folklor festivali. "Jahon sivilizatsiyasida boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2019. – B 83-84.
7. Surxondaryo viloyati hokimligi. "Ayollar daftari" dasturi hisoboti, 2022. – B. 9–15.

-
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. “O‘zbekistonda mehnat bozori” – T.: 2024. – B. 51–53.
 9. “O‘zbekistonda xotin-qizlar va norasmiy mehnat” // “Ijtimoiy fanlar”, 2023, №2. – B. 49–53.